

# artel

## //SOVUTGICHLAR

FOYDALANISH BO`YICHA QO`LLANMA  
РУКОВОДСТВО ПО ЭКСПЛУАТАЦИИ



HS-390 SN  
HS-474 SN  
HS-520 SN  
AHS700SN  
AHD1500SN



**SAVDO SOVUTGICHLAR**  
**HS-390 SN, HS-474 SN, HS-520 SN, AHS700SN, AHD1500SN**

**Mundarija**

Xavfsizlik talablari	4
Foydalanish bo'yicha umumiy qoidalar	5
Mahsulot tavsifi, modeli, ishlash xususiyatlari	7
Ishlash prinsipi (sozlash va boshqarish)	8
Tashish, qadoqlash, yuklash va saqlash	9
Ishga tushirish	10
a) Elektr tarmog'iga ulash	10
b) Elektrik sxema	12
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	13
Nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari	14

**Hurmatli xaridor!**

**ARTEL** sovtugichlarini sotib olganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Biz Sizga funksional va dizayn jihatidan qayta ishlangan, mahsulot sifatiga qo'yilgan yuqori talablarga mos ishlab chiqarilgan mahsulot taklif etishdan mamnunmiz. Ishonamizki, **ARTEL** kompaniyasi mahsulotlarini sotib olganingizdan xursand bo'lasiz.

Iltimos, foydalanishdan oldin mazkur qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing. Unda maishiy sovtugichlardan xavfsiz foydalanish va uni saqlash yuzasidan muhim ko'rsatmalar o'rin olgan. Ushbu "Foydalanish bo'yicha qo'llanma"ni ehtiyotlik bilan saqlang.

**Quyida ko'rsatilgan shartli belgilar bo'yicha muhim ko'rsatmalar:**



Iste'molchilarning sog'lig'ini xavf ostiga qo'ymaslik maqsadida qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar .



Sovtugichning buzilishini oldini olish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar.



Sovtugichlarni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan foydali ma'lumotlar va maslahatlar.

## 1. XAVFSIZLIK TALABLARI.



Sovutgich elektr toki ta'siridan himoyalaniish toifasi 1-toifasiga asosan tayyorlangan, shu bois sovutgichdan foydalanganda quyidagi elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qiling.

Sovutgich xavfsiz ishlashi uchun quyudagi ehtiyotkorlik choralarini ko`rishni tavsiya etamiz:

- sovutgichni manbaaga ulashdan oldin uning sozligini, elektr o`tkazgich simining himoya qobig'i butligini tekshiring;
  - sovutgich korpusiga tok o`tkazish qismlarning tegishi kuzatilsa, sovutgichni o`chiring va kamchilikni bartaraf qilish uchun mutaxassisni chaqirtiring;
  - bir vaqtning o`zida sovutgichga va tabiiy yerga ulanishi mavjud bo`lgan qurilmalarga teginmang;
  - sovutgichni yuvishda, uning pol qismini artishda, kamchiliklarni bartaraf etishda sovutgichni o`chirib, uning vilkasini manbadan uzib qo`ying;
  - Mazkur yo`riqnomada aytib o`tilgan hollardan tashqari boshqa paytlarda kompressor bo`limi panjarasini ochmang. Bu elektr tok urishiga olib kelishi mumkin;
  - Sovutgichni tozalash uchun hech qachon suv shlangi yoki bosimli tozalagich ishlatmang;
  - Elektr jihozlarida olib boriladigan har qanday ishlar mutaxassis tomonidan bajarilishi kerak. Ehtiyotkorlik juda muhimdir!
  - Sovutgich buzilgan bo`lsa uni elektr manbaiga ulamang. Biron bir shubhalariniz bo`lsa servis xizmatiga murojaat qiling;
  - Sovutgichni mahsulot bilan to`ldirayotganingizda to`ldirish me`yoriga e`tibor bering. 1-jadval 12-qatorda ko`rsatilgan!
  - Sovutgichning elektr qismlarini faqatgina mutaxassis yoki tajribasi bor bo`lgan boshqa bir shaxs almashtirishi mumkin!
  - Mazkur sovutgich jismoniy, aqli zaif (bolalar bundan mustasno emas), yetarli tajribasi va bilimi bo`lmagan kishilar tomonidan ishlatish uchun mo`ljallanmagan. Sovutgich faqatgina ehtiyotkorlik chorolari bo`yicha ma'sul shaxsning nazorati ostida yuqoridagi kishilar tomonidan ishlatilishi mumkin!
  - Agar elektr manbaiga ulanuvchi sim buzilgan bo`lsa elektr tok urishi xavfini oldini olish maqsadida bu sim ishlab chiqaruvchi, servis xizmati yoki yetarli tajriba va bilimga ega bo`lgan shaxs tomonidan almashtiriladi.
- Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida sovutgichga quvvati 30W dan yuqori bo`lgan yoritish lampalarini o`rnatish taqiqlanadi.



**Sovutgichning sovutish tizimida sovutuvchi agent (R134a/R600a/R290) mavjud.DIQQAT! Sovutish tizimning germetikligini saqlang.**

**Sovutgich ichida elektr qurilmalardan foydalanmang. DIQQAT! Sovutish tizimi shikastlanganda, xonani to`liq shamollatish zarur va sovutgich atrofida ochiq olov paydo**



**bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki sovutuvchi agent R134a/R600a/R290 tez alanganuvchi gaz.**

**DIQQAT! Sovutgichni tez alanganuvchi va yong'in tarqatuvchi buyum va jismlarga (parda, lak, bo'yoqlar va boshqa.) yaqin joylashtirmang.**

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida quyidagilar **TAQIQLANADI**:

- tok kuchlanishidan himoyasi nosoz bo'lgan elektr tarmog'iga sovutgichni ulash. Elektr tarmog'ida 16 A ga mo'ljallangan himoya qurilmasi mavjud bo'lishi kerak;
- sovutgichni ulashda, tabiiy yerga ulanishi bo'lmagan rozetkadan foydalanish;
- sovutgichni elektr tarmog'iga ulashda, qo'shimcha qurilmalardan, ko'p o'rinli rozetkalardan (ikki va undan ortiq o'rinli ulanishli) foydalanish;
- sovutgichda portlovchi moddalarni saqlash;
- kompressoridagi erigan suvni to'plovchi idish mavjud bo'lmasa sovutgichni ekspluatatsiya qilish.

## 2. FOYDALANISH BO'YICHA UMUMIY QOIDALAR



Mazkur yo'riqnomada ko'rsatib o'tilgan savdo sovutgichi qadoqlangan ichimliklarni va maxsulotlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Sovutgichga sovutgich ichida saqlanmaydigan mahsulotlarni qo'ymang yoki uni qadoqlanmagan mahsulotlarni sovutish va muzlatish uchun ishlating.

Sovutgichni ishlatishda atrof-muhit harorati +12°C dan +38°C gacha bo'lishi talab etiladi.

Sovutgich chastotasi 50 Hz o'zgaruvchan tok va kuchlanishi 220-240 V bo'lgan manbada ishlaydi.

**Sovutgichni harid qilishda uning ishlashini, 3-bo'limdagi 2 jadvalga muvofiq butligini hamda undagi mexanik shikastlar yo'qligini sotuvchi ishtirokida tekshirib oling.**

**Sovutgich sotilgandan keyin ishlab chiqaruvchi undagi mexanik shikastlar va uning butligi yuzasidan e'tirozlarni qabul qilmaydi.**

Sovutgichlar quyidagi qulayliklarga ega:

- tokchalarni turli balandlikda o'rnatish imkoniyati;
- erigan suvni sovutgichdan tashqariga bug'lanib chiqib ketishi;



**Diqqat:** Sovutgich kafolat talonida mahsulot sotilgan sana va savdo tashkiloti muhri qo'yilishini talab qiling.

Sovutgich tuzilishi doimiy ravishda takomillashib boradi, shu bois ushbu yo'riqnomada ko'rsatilmagan o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Sovutgichni ko'tarayotganingizda uning vazniga e'tibor bering (1-jadvalda ko'rsatilgan).

Sovutgich qadog'ini oching va uni transportirovka qutisidan chiqaring. O'rnatuvchi tirgak yordamida sovutgichni polga mustahkam o'rnatilishini ta'minlang, bunda yuqori sathi gorizontal holatda bo'lishi kerak.




Sovutgichni o'rnatish uchun joy tanlashda sovutgichninig xavfsiz va muammosiz ishlashini ta'minlash maqsadida quyidagi shart-sharoitlarga e'tibor berish kerak:

-Sovutgich eshigi mustaqil ravishda, sizning yordamingizsiz yopilishi uchun o'rnatuvchi tirgak yordamida (3-rasm) sovtgich old tomonini orqa tomonga nisbatan 5-7 mm baland qiyalikda joylashtiring.


-Sovutgichni ishlatishdan avval ichki va tashqi tomonini sovun yordamida iliq suvda yuving, quruq qilib arting va eshigini ochib bir soat davomida shamollating.

-Sovutgichni issiqlik manbalaridan uzoqroqda, quyosh nurlari tushmaydigan joyga o'rnatg (1-rasm).

-Sovutgichni ventilyator yo'ki ochiq eshikdan keladigan havo oqimi ta'siri bo'lgan joylarga



1 Rasm



2 Rasm

- Sovutgichni o'rnatish joyida quyidagi harorat va namlik talab qilinadi: **30 °C, 55 % namlik.**

- Sovutgichning atrofidagi havo oqimi yuruvchi yo'llarni turli qutilar bilan band qilmang.

- Sovutgichni devorga taqab o'rnatayotganingizda sovtgichning ventilyatoriga havo bemaol kirib chiqa olishiga ishonch hosil qiling. Sovutgichni tashqariga (ko'chaga) o'rnatmang.




Favqulot holatlarda sovtgichdan suv oqishi mumkin, shuning uchun sovtgichni o'rnatadigan joyingizning pol qismi suvga chidamli materialdan ishlangan bo'lishi kerak.

**Sovutgichni ishga tushirishdan oldin uning eshigini ochgan holda kamida 12 soat davomida xona haroratida saqlang. Xona haroratida ushlab turilmagan sovtgichni darhol ishga tushirish motor kompressorni buzilishi va sovtgich tizimiga moy haydaliishi mumkin. Bu esa sovtgichni ishdan chiqishiga olib keladi.**


Sovutgich rozetkaga shtepselli vilka orqali ulanadi. Sovutgichni tarmoqqa ulashdan avval, manbaadagi kuchlanish, sovtgich ichgi qismiga birkittirilgan yoriqda keltirilgan kuchlanishga muvofiqligini tekshirish zarur.

Qadoqlanmagan mahsulotlarni hamda o'tkir hidli yoki o'ziga hid oluvchi mahsulotlarni sellofanga, polietilen sellofanga yoki alyumin zarga o'rab saqlang. Yoqimsiz hidlarni paydo bo'lishini oldini olish maqsadida dori vositalarini germetik qadoqsiz saqlash taqiqlanadi.

Sovutgichni devordan alohida ajratgan holda joylashtirishda devor va sovtgich o'rtasidagi masofa 80 mm dan kam bo'lmasligi lozim. Bu sovtgichdan ajralib chiqayotgan havo oqimi yo'nalishining to'g'ri harakatlanishiga xizmat qiladi (4-rasm).



3 Rasm



4 Rasm

### 3. MAHSULOT TAVSIFI, MODELI, ISHLASH XUSUSIYATLARI

Texnik ko'rsatkichlar

1-jadval

Texnik tavsif	Modellar				
	HS -390 SN	HS -474 SN	HS -520 SN	AHS700SN	AHD 1500SN
Nominal kuchlanish (V)	220 ~ 240				
Nominal istemol quvvati, W	260	300	300	204	700
Sovutgichning umumiy hajmi, L	365	380	400	540	1150
Sovutish kamerasining harorati, C	+1/+10	+1/+10	+1/+10	+1/+10	+1/+10
Mahsulot saqlash sathi va tokchalarning yuzasi yig'indisi, m <sup>2</sup>	0.7*	0.9*	1.1*	1.4*	2.8*
Atrof muhitning harorati o'rtacha 25 C bo'lganda elektr energiyaning sutkalik sarflanishi, kW*sutka	3.5	3.7	3.7	2.8	6.1
Netto vazni, dan ko'p emas, kg	67	76	84	90	165
Brutto vazni, dan ko'p emas, kg	75	86	93	100	175
Xladagent turi	R290 / R600a / R134a	R290 / R600a / R134a	R290 / R600a / R134a	R290 / R600a	R290 / R600a
Tokchalarga sig'adigan maksimal yuk vazni, kg	35			40	54
O'lchamlari, mm:					
Balandligi	1735/1825	2035/2125	2060/2144	2000/2125	2000 /2080
Eni	595/654	595/654	595/654	740/792	1200/1285
Chuqurligi	645/692	645/692	645/692	695/754	800 /880

## Sovutgich butlovchi qismlarining jamlanishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval\*


Tarkibiy qismlar	Normi	Modellar				
		HS-390 SN	HS-474 SN	HS-520 SN	AH5700SN	AHD1 500SN
Asosiy mahsulot	Savdo sovutgichi	1	1	1	1	1
Foydalanish davomida o'rnatiluvchi qismlar	Sovutgich tokchasi	3*	4*	4*	4*	4*

\* - Sovutgich tuzilishi muntazam takomillashtirib boriladi, shu sababdan ayrim o'zgarishlar kuzatilishi mumkin.


### 4. ISHLASH PRINSIPI

#### Sozlash va boshqarish.

Sovutgichdagi harorat rejimi termoregulyator dastagi (5-a rasm) ni burash orqali amalga oshiriladi va avtomatik ravishda tanlangan rejim ishga tushadi. Termoregulyator dastagida sovutish agregatining: «MIN», «MED» va «MAX», «OFF» ko'rsatkichlari aks etgan.



5-a Rasm



5-b Rasm

#### Kerakli haroratni o'rnatish.

Ichki harorat faqat termostat orqali boshqariladi.

**MIN** (termostat "MIN" holati) maksimal yuqori haroratni anglatadi. (+10°C ÷ +12°C).

**MED** (termostat "MED" holati) mahsulotlar uchun eng yaxshi haroratni anglatadi. (+5°C ÷ +7°C).

**MAX** (termostat "MAX" holati) minimal past haroratni anglatadi. (+1°C ÷ +3°C).

**OFF** (termostat "OFF" holati) sovutgichni o'chirish (tarmoqdan uzilmaydi).

#### Kerakli haroratni o'rnatish. 5-b rasmdagi model uchun.

Ichki harorat faqat tashqi tabloga o'rnatilgan elektron termostat orqali boshqariladi.

Haroratni elrktron termostat tugmasini bosish orqali o'zgartiriladi.

1-Belgilangan haroratni ko'rsatish uchun Sozlamalar tugmasini bosing. (sovtgichning to'g'ri ishlashi uchun elektron termostat panelidagi ko'rsatgich +01°C dan +03°C gacha bo'lishi kerak).

2-Harorat qiymatini o'zgartirish va saqlash uchun yoki tugmasini bosing. Sozlamalar rejimidan chiqish va sovitish kamerasining haroratini ko'rsatish uchun tugmasini bosing.

3-Sovutgichdagi harorat qiymatlari.

### Bug'latuvchi yuzasidagi muzni eritish.

Bug'lantiruvchi yuzasida paydo bo'luvchi muz va qorlarni eritish, shuningdek tomayotgan suvning bug'lanishi, haroratni nazorat qiluvchi moslama (termostat) tomonidan nazorat qilinadi va avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Muzni eritish jarayonining doimiyliigi va vaqti ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatiladi.

Shuning uchun ushbu jarayonga aralashish shart emas. Muzning erigan suvi kompressor ustidagi idishga yig'iladi.



Sovutgichda elektr energiya sarfini kamaytirish maqsadida, quyidagilarni maslahat beramiz:

- sovtgichni belgilangan talablarga muvofiq o'rnatishni;
  - issiq mahsulotlarni sovtgichga joylashdan oldin, xona haroratigacha sovitishni;
  - eshik ochilishlar sonini va davomiyligini kamaytirishni;
  - bug'latgichda muz sathining qalinlashishiga yo'l qo'ymaslikni;
- Sovutgich uzoq muddat foydalanish uchun mo'ljallangan, shu sababli shnurini tarmoqdan uzganda sovtgichni shikastlanmaydigan holda joylashtirish kerak, shundan so'ng uni tozalash mumkin.

Sovutgichni oyiga kamida bir marta tozalab turing.

**ESLATMA:** Erigan suv kompressorning ikkilamchi issiqligi oqibatida bug'lanib ketadi.

Sovutgich ishlaganda kompressor yuzasi 90°C gacha qizishi mumkin. **Har 2 oy mobaynida erigan muzni to'plovchi idishni (11-rasmga qarang) tozalab turish lozim.** Erigan suv idishi kompressor ustiga qotirilgan bo'lib, kompressor bo'limi panjarasini yechib olish yo'li bilan olinadi. Kompressor ishga tushishi va to'xtashi davomida sovtgich sifati va ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydigan shovqin paydo bo'lishi mumkin.

## 5. TASHISH, QADOQLASH, YUKLASH VA SAQLASH

**Tashish.** Sovutgichni tashishda kompressordan yog', ichki qurilmalarga to'kilishini oldini olish maqsadida sovtgich, albatta, avtomobil kuzoviga tik holatda mahkamlangan bo'lishi lozim. Agar sovtgichni tik holatda o'rnatishning imkoni bo'lmasa korpus ko'pi bilan 40 daraja qiyalikda joylashtirilishi mumkin.

Sovutgichni mahkamlashda tashish paytida uning ustki qatlami tiralmasligi uchun metall xalqali maxsus yumshoq arqondan foydalaniladi. Shuningdek, sovtgichni tashishda iqlim xususiyatini ham inobatga olinishi kerak, imkon qadar tashish yopiq avtomobilda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.




Sovutgichni gorizontal joylashtirish mumkin emas, uni tik holatda joylashtiring. Bunda quyidagi ko'rsatkich tepaga qaratilgan holatda bo'lishi lozim.




Sovutgich qulab ketmasligi uchun tashish paytida uni qattiq mahkamlang.

**Qadoqlash.** Sovutgichni tashishdan oldin undagi barcha yordamchi jihozlar (tokchalar, qutilar va boshqalar) ni chiqarib olib, sinchkovlik bilan qadoqlash lozim. Qadoq o'rami sovutgich va transport vositasi turi, qolaversa tashish masofasiga qarab amalga oshiriladi. Qadoqlashda karton, penoplast, polietilen hamda havo-pufakchali materiallardan foydalanish mumkin. Bo'yalgan sath shikastlanishini oldini olish maqsadida sovutgich ostiga karton yoki qalin mato tashlab qo'yilishi mumkin. Tashish jarayonida sovutgichni chayqalishidan saqlash uchun uning atrofini tayanch pona yoki qistirma bilan chegaralab qo'yish maqsadga muvofiq. Shuningdek, sovutgichning eshigi mahkam yopilganligiga hamda tashish paytida ochilib ketmasligiga ishonch hosil qilinishi mumkin. Buning uchun sovutgich eshigi yumshoq arqon bilan mahkamlanishi kerak.

**Yuklash.** Sovutgichni avtomobilga yuklash muhim ahamiyatga ega. Sovutgich kompressorlari prujinada osilgan holatda turishini inobatga olib yuklashda silkinish va zarbalarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Chunki kompressorga misdan tayyorlangan mo'rt quvurlar o'rnatiladi va ular kuchsiz silkinishda ham shikastlanishi mumkin.




**Saqlash.** Qadoqlangan sovutgichni yopiq binoda tabiiy shamollatish sharoitida havoning nisbiy namligi 80% dan ko'p bo'lmagan holda saqlash lozim. Agar sovutgich uzoq vaqt davomida ishlatilmasa uni elektr tarmog'idan uzib, undagi barcha mahsulotlarni chiqarib, sovutgichni tozalash tavsiya etiladi. Tozalash yakunlangandan so'ng kamerada noxush hid bo'lmisligi uchun sovutgich eshigini biroz ochiq holda qoldirilishi lozim.




## 6. ISHGA TUSHIRISH


### Elektr tarmog'iga ulash.

 Sovutgichni elektr tarmog'iga ulashda, qo'shimcha qurilmalardan, ko'p o'rinli rozetkalardan (ikki va undan ortiq o'rinli ulanishli) foydalanish **TAQIQLANADI** (6-rasm). Bu shurning qizib ketishiga yoki yong'in kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Sovutgichda maxsus o'chirish tugmasi mavjud emas. Shuning uchun unga elektr ta'minotini nazorat qiluvchi moslama o'rnatilishi maqsadga muvofiq. Mazkur moslama sovutish priborining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Sovutgichning tarmoq vilkasi elektr

tarmog'i rozetkasiga mustahkam o'rnatilishi kerak, 16 A turdagi saqlagich (7-rasm) o'rnatilgan bo'lishi va yerga ulanishi (zazemleniya) mavjud bo'lishi lozim. Tok kuchi va elektr tarmoq manbaa chastotasi ishlab chiqaruvchi o'rnatgan holatda bo'lishi kerak. Elektr kabel o'tkazishda kabelning xususiyatlari amaldagi qonunchilik me'yorlari (yerga ulanish, ta'minotning qo'shimcha manbalaridan foydalanish, elektr tokini nazorat qilish moslamasini o'rnatish va boshqa)ga muvofiq bo'lishi lozim. Sovutgichni tarmoqqa ulashdan avval, manbaadagi kuchlanish, sovitgichning ichki tomoniga biriktirilgan yorliqda keltirilgan kuchlanishga muvofiqligini tekshirish zarur. Yuqorida keltirilganlar bo'yicha savollar tug'ilsa mutaxassisga murojaat qiling.




6 Rasm




7 Rasm



Sovutgichni ishga tushgani past tovushda ventilyator va sovitish tizimining ishlashidan bilinadi. Ventilyator, eshik ochilganida o'chirgich yordamida o'chadi (8-2 rasm). Sovutgichning yoritish tizimi tablodagi yoqib-o'chirgich moslama orqali yoqiladi (8-1 rasm).



8 Rasm



9 Rasm




Elektr kabelini buzilishi va uzilib qolishi himoya qiladigan shaklda o'tkazing (9-rasm).




Elektr kabeli harorati 70°C dan yuqori bo'lgan qismlarga tegib turishi **TAQIQLANADI.**

Elektrik sxema. (HS- 390 SN, HS- 474 SN, AHS700SN modellar uchun)




UZ	
L	Faza
N	Neytral sim
PE	Erga ulash simi
TH	Termostat
RH	Saqlagich
M	Motor-Kompressor
RA	Ishga tushirish releisi
S <sub>1</sub>	Ichgi ventilyator o'chirgichi
M <sub>1</sub>	Ichgi ventilyator motori
M <sub>2</sub>	Tashqi ventilyator motori
S <sub>2</sub>	Yoritgich o'chirgichi
PS	Manbaa bloki ... 220/24V
L <sub>1</sub>	Ichki shkaf lampasi ... 24V 30Vt
L <sub>2</sub>	Reklama tablosi lampasi... 24V 10Vt
SL	Indikator lampa
	Jigarrang
	Ko'k
	Qizil
	Sariq/Yashil
	Oq

Elektrik sxema. (HS- 520 SN modeli uchun)



UZ	
L	Faza
N	Neytral sim
PE	Erga ulash simi
TH	Termostat
RH	Saqlagich
M	Motor-Kompressor
RA	Ishga tushirish releisi
S <sub>1</sub>	Ichgi ventilyator o'chirgichi
M <sub>1</sub>	Ichgi ventilyator motori
M <sub>2</sub>	Tashqi ventilyator motori
S <sub>2</sub>	Yoritgich o'chirgichi
PS	Manbaa bloki ... 220/24V
L <sub>1</sub>	Ichki shkaf lampasi ... 24V 30Vt
L <sub>2</sub>	Reklama tablosi lampasi... 24V 10Vt
SL	Indikator lampasi
SR	Termodatchik
	Jigarrang
	Ko'k
	Qizil
	Oq
	Sariq/Yashil

### Elektrik sxema. (AHD1500SN modeli uchun)



### 7. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH



Sovutgichni sozlashdan oldin uni elektr tarmog`idan uzib qo`ying. Sovutgich odatda hech qanday sozlashga muhtoj bo`lmaydi, faqatgina kompressor bo`limidagi kondensatorni yil davomida 5-6 marta tozalash kifoya (10-rasm).



10 Rasm



Sovutgichni o'rnatish, eritish va ishlatishni noto'g'ri amalga oshirish hamda o'z vaqtida tozalamaslik nosozliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Sovutgichdagi nosozliklar hamda uni ta'mirlashga ketadigan ortiqcha xarajatlarining oldini olish uchun quyidagi texnik qoidalarni bilish va ularga amal qilish lozim:



1. Sovutgich o'chirilgandan keyin uni qayta yoqish uchun 5 – 7 daqiqa kutib turing, uni darvaqt yoqish kompressor motori ish faoliyatida nosozlik keltirib chiqarishi mumkin.



2. Sovutgichni eritgandan so'ng mahsulotlarni darhol joylamang. O'rnatilgan harorat sharoitida ish boshlashini kuting.



3. Termoregulyator ko'rsatkichlarini o'rtachadan yuqori o'rnatmang. Bu to'g'ri emas. Agar termoregulyator ko'rsatkichlari maksimum darajaga qo'yilsa harorat sezilarli darajada tushadi va sovutish agregati yuklamasi ortadi.



4. Sovutgichdan foydalanishda tez-tez chiqarish tuynugining ifloslanishi oldini oling.



5. Sovutgichni eritishda iliq suvdan foydalanish tavsiya etiladi. Sovutgichni tozalashda yumshoq latta yoki jun matodan foydalanish mumkin. Sovutgichni tozalashda pichoq va boshqa o'tkir jismlardan foydalanish mumkin emas.

Sovutgichdan foydalanuvchilarning aksariyati quyidagi muammoga duch kelishadi: -sovutgichning kamerasidagi bug'latgichning teshilishi. Bu, qoida tariqasida, sovutgichdan ehtiyotsizlik bilan foydalanishda sodir bo'ladi. Aksariyat foydalanuvchilar sovutgichni muzdan eritish jarayonini tezlatish maqsadida muzni qo'porish yoki muz sathini tozalashda pichoqdan foydalanishadi.

Shu yo'l bilan turli teshiklar, tirqishlar, yoriqlar paydo bo'ladi.




Bug'latgich shunday o'rnatilganki, agar u shikastlansa undan agent **IZOBUTAN** sizib chiqib ketishi boshlanadi. Agar bunday tirqishlar o'z vaqtida aniqlanmasa va sovutgich elektr tarmoqdan uzib qo'yilmasa bu jiddiy shikastlanishga olib keladi.


Bunda bug'latgichga suv tushishi nazarda tutilmoqda. Birinchi navbatda, buning xavfliligi shundaki, bug'latgich ta'mirlangan hollarda ham sovutgichning ishlash qobiliyatini tiklash qiyin kechadi.

## Erigan muzni to'plovchi idishni tozalash.

11-rasm



Kompressor bo'linmasi qopqog'ini yechish uchun, ko'rsatilgan vintlarni bo'shating va qopqoqni oling.



Rasmda ko'rsatilgan yo'nalishda, erigan suv idishini torting, kompressor ustidan oling. Shundan so'ng suv idishini iflosliklardan tozalang, suv idishini qayta o'z o'rniga o'rnatib. Kompressor qopqog'ini qayta o'rnatib, 2 ta vintni mahkamlab qo'ying.

## 8. NOSOZLIKLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH USULLARI

### 3-jadval

Nosozlik, uning belgilari 1	Ehtimoliy sabablari 2	Nosozlikni aniqlash va bartaraf qilish usullari 3
Tarmoqqa ulangan sovutgich ishlamasligi, yoki faqat ventilyator ovozi eshitiylapti.	-Termostat o'chirilgan -Elektr simi rozetkadan sug'urilgan yoki boshqaruv tugmasi o'chgan. -Saqlagich kuygan, rozetka yoki uzaytirgich nosoz holatga kelgan.	-Ta'mir ishlariga hojat yo'q, chunki sovutish yana avtomat ravishda o'zi ishlaydi. -Vilkani manbaa rozetkasiga mahkam ulang yoki boshqaruv tugmasini yoqing. -Malakali usta yoki Servis xizmatiga murojaat qiling. Sozlash ishlarini olib boring.
Saqlash harorati juda yuqori	-Umumiy harorat juda baland yoki termostat noto'g'ri ishlatilgan. -Devorla bevosita yaqin qilib qo'yilgan. -Xavo aylanish darchalari tiqilgan yoki to'silgan. -Kompresor bo'limidagi kondensator tiqilib qolgan.	-Ta'mir ishlariga hojat yo'q, chunki, muzni eritish jarayonida vaqtincha ravishda harorat sal oshishi normal holatdir. -Juda yuqori harorattan saqlaning, saqlash haroratini qayta belgilang. -Tegishli minimal masofani saqlang. -Xavo kirish bo'limi yonida barcha to'siqlarni olib tashlang. <u>-Sozlash ishlarini olib boring.</u>
Saqlash harorati juda past.	-Noto'g'ri ishlatish.	-Haroratni oz-ozdan qo'shib boring.
Sovutgichning yoritilishi qisman yoki butunlay o'chib qoldi.	-Chiroq yoqilmagan. -Lampa yoki starter ishlamayapti.	-Chiroqni yoqing. -Lampa yoki starterni almashtiring.
Javon va oynali eshikda kuchli kondensatsiya.	-Haddan ziyod xona harorati yuqori (nisbiy namlik > 65 %).	-Xavo aylanishini yaxshilang. Ammo sovutgich o'zi bevosita yelvizakda turmasligi kerak.
Sovutgichning to'g'risida yoki tagida suv yig'ilib qolgan.	-Haddan ziyod xona harorati yuqori (mas. nisbiy namlik > 65 %, judda issiq yozgi harorat) kompressor bo'limidagi suv qutisining to'lib ketishiga olib keladi.	-Suvni artib tashlang. Agarda 48 soat ichida takroran suv paydo bo'lsa, Servis xizmatiga murojaat qiling.
Sovutgich ichida qo'lansa hid paydo bo'ldi.	-Ergan muzni jamlovchi idish ifloslangan.	-Suvni bug'latuvchi idishni tozalang.

Bu sovutish uskunalari atrof muhitni himoya qilishning yuqori standartlari va qayta ishlash qulayliklariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Termo izolyatsiya sifatida, atrof muhit uchun bezarar modda, siklopentan ishlatilgan. Siklopentan ozon qatlamini mutlaqo yemirmaydigan va global isishga ta'sir ko'rsatmaydigan modda deb topilgan. Germetik yopiq sovutish tizimida foydalaniladigan atrof muhitga bezarar R134a/R600a/R290 sovutish agentida xlorin moddasi yo'q bo'lib, u ozon qatlamini yemirmaydi.

Sovutgich tegishli qoidalar asosida chiqindiga chiqarilmog'i kerak. Atrof muhitni himoya qilish va ishlatilgan yuqori sifatli materiallarni qayta ishlashni rag'batlantirish maqsadida, yaroqsiz holga kelgan sovutgichlarni samarali qayta ishlash uchun yig'ib olinishi kerak. Shu sabab, quyidagilarga amal qilmoq lozim:

- Sovutgich oddiy maishiy chiqindilar bilan tashlab yuborilmasligi kerak.
- Sovutish tizimiga zarar yetmasligi lozim.
- Sovutgichni tashlab yuborishdan avval uni ishlatib bo'lmaydigan holatga keltiring, elektr kabelini olib kesib tashlang!

Odatda bolalar sovutgichlar bilan bog'liq xavf-xatarning farqiga bormaydilar. Shuning uchun tegishli choralar ko'rib, bolalarning tashlab yuborilgan sovutgichlar bilan o'ynamasligini ta'minlash kerak.



**Hurmatli xaridor (ISTE'MOLCHI)**, mahsulotda biror bir kamchilik, shikastlanish yoki nosozlik mavjudligini kafolat muddati davomida yoki undan keyin aniqlasangiz Sizdan qisqa muddat ichida vakolatli servis markaziga yoxud kafolat talonida ko'rsatib o'tilgan telefon raqamiga murojaat qiling. Servis markaziga murojaat qilishda sovutgich modeli va seriya raqamini taqdim qiling.



#### **Utilizatsiya**

Sovutgichni qadoqlashda foydalaniladigan materiallar, ikkilamchi xom-ashyolarni qabul qilish punktlariga topshirilsa, ularni qayta ishlash va undan yana foydalanish mumkin.



**DIQQAT!** Bolalarning qadoqlash materiallari bilan o'ynashlariga yo'l qo'ymang, aks holda qadoqlash plyonkalarini chigallashtirish yoki karton quti ichiga tushib ketish natijasida bo'g'ilib qolish xavfi mavjud.

Utilizatsiya qilinishi lozim bo'lgan sovutgichni, mamlakat qonunchiligiga muvofiq holda utilizatsiya qilish va tarmoq shnurini uzib yaroqsiz holga keltirish kerak. Sovutish tizimida mavjud bo'lgan R134a/R600a/R290 xladagenti esa mutaxassis tomonidan utilizatsiya qilinishi kerak. Sovutish tizimi quvurlari utilizatsiya qilingunga qadar shikastlanmaganligini tekshirish va bunga e'tiborli bo'lish lozim.

#### **Hurmatli xaridor!**

**«ARTEL» savdo belgisi Sizning tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiradi hamda foydalanish qoidalariga rioya etilganda mazkur mahsulotning yuqori sifat bilan nuqsonsiz ishlashiga kafolat beradi.**

## ВИТРИННЫЕ ХОЛОДИЛЬНИКИ HS-390 SN, HS-474 SN, HS-520 SN, AHS700SN, AHD1500SN

### СОДЕРЖАНИЕ

предупреждения по безопасности .....	19
Общие инструкции к применению .....	20
Описание продукта, модель, рабочие характеристики .....	22
Принцип работы (настройка и управление) .....	23
Перевозка, упаковка, погрузка и хранение .....	24
Ввод в эксплуатацию .....	26
а) Электрическое подключение .....	27
б) Электрическая схема .....	27
Техническое обслуживание и ремонт .....	28
Неисправность-причины-решения .....	29

#### Уважаемый покупатель!

Благодарим Вас за приобретение холодильника **ARTEL**. Мы рады предложить Вам изделия, разработанные и изготовленные в соответствии с высокими требованиями к качеству, функциональности и дизайну. Мы уверены, что Вы будете довольны приобретением продукции компании **ARTEL**.

Пожалуйста, перед использованием внимательно изучите настоящую инструкцию. Она содержит важные указания по безопасной эксплуатации витринных холодильников и по уходу за ними. Позаботьтесь о сохранности настоящего “Руководство по эксплуатации”

Ниже приводятся важные рекомендации по следующим условным знакам:



**Указание, которые должны выполняться в соответствии с правилами, чтобы избежать угрозы здоровью потребителей.**



**Указание, которые необходимо выполнять во избежание поломок и неполадок в работе холодильного прибора.**



**Полезная информация и советы по использованию холодильников.**

## 1. ТРЕБОВАНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ



Холодильник защищен от поражения электрическим током в соответствии с категорией 1, поэтому при использовании холодильника используйте следующие правила электробезопасности.

Для безопасной работы холодильника рекомендуется принять следующие меры предосторожности:

- перед подключением холодильника к электрической сети проведите визуальный осмотр на исправность розетки, вилки и шнура электропроводки на отсутствие нарушений изоляции;
- при наличии замыкания токоведущих частей на корпус холодильника (пощипывание при касании металлических частей) отключите холодильник от сети и вызовите специалиста для устранения неисправности;
- не прикасайтесь одновременно к холодильнику и устройствам, имеющим естественное заземление (газовой плите, радиаторы отопления, водопроводные краны и др.);
- отключайте холодильник от сети, вынув штепсельную вилку из розетки, на время: уборки его внутри и снаружи, мытья пола под холодильником, устранения неисправностей и др.
